

O'ZBEK TILI DARSLARIDA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISH USULLARI

Kamoljonova Go'zal Axmadjonovna

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi o'zbek tili fani metodisti

Annotatsiya: Bu maqola ona tili, o'zbek tili, boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida foydalanish uchun. Diktant va uning turlari, darslarda tashkillashtirilish bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: Данная статья предназначена для использования на уроках родного языка, узбекского языка, начального образования. Дана информация о диктанте и его видах, этапах организации на уроках.

Annotation: This article is intended for use in lessons of the native language, Uzbek language, and primary education. Information is given about dictation and its types, stages of organization in lessons.

Kalit so'zlar: diktant, ta'limiy diktant, ta'kidiy diktant o'z diktanti yoki yoddan yozish diktanti. izohli diktant. saylanma dektant erkin diktant rasmi diktant lug'at diktant ijodiy diktant.

Ключевые слова: диктант, учебный диктант, эмфатический диктант, собственный диктант или объяснительный диктант наизусть. выборочный диктант, свободный диктант, диктант по картинкам, словарный диктант, творческий диктант

Key words: dictation, educational dictation, emphatic dictation, own dictation or memorizing dictation. explanatory dictation. selective dictation, free dictation, picture dictation, vocabulary dictation, creative dictation.

Yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, jumladan, oliy ta'limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. O'qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda "Ona tili o'qitish metodikasi" fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o'rinni egallaydi. Yangi innovatsion ta'limda ta'lim muassasalaridagi o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zamirida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Bugungu kunda mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ilg'or

xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan o'zbek tili darslarida diktant va uning turlari fanning eng kerakli qismlaridan biri hisoblanadi.

Diktant-eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozish bo'lib, o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda, savodxonligini oshirishda ta'limiy diktant turlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. O'quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi va bu jarayonda fonetik, leksik va grammatik bilimlariga tayanadi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun, o'z navbatida, grammatik qoidalarni ham bilish zaruriyati yuzaga keladi.

Ta'limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ta'kidiy diktant.
2. O'z diktanti yoki yoddan yozish diktanti.
3. Izohli diktant.
4. Saylanma dektant.
5. Erkin diktant.
6. Rasmlil diktant
7. Lig'at diktant
8. Ijodiy diktant.

Bular asosida saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum ozgarishlar bilan yozilishga yo'l qo'yiladi.

1. Ta'kidiy diktantdan qoidani amaliyotga tatbiq etish usullarini yzxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin izohli yozuvdagi kabi o'quvchilar so'zning qanday yozilishi v anima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar, nimalarga e'tibor berilishi kerakligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham mazkur ish turi ta'kidiy diktant deyiladi. Ta'kidiy diktant uchun matnni faqat kitoblaridan emas, balki o'zbek tili darsligidan ham olish mumkin. Chunki ta'kidiy diktant o'tkazishdan bir necha kun oldin o'quvchilarga yoziladigan matnni o'qib kelish topshiriladi. Bundan maqsad o'quvchilarning o'zgan imlo qoidalarini mustahkamlash, undan amalda foydalanish ko'nikmasini hosil qilish hisoblanadi. Ta'kidiy diktantda matnni bayon qilishdan oldin imlo qoidalarini eslash, izohlash lozim. Masalan, so'roq yoki undov belgilarininf qo'llanish o'rinlarini eslatish uchun o'qituvchi quyidagicha savollar berishi mumkin:

- Qaysi vaqtlarda so'roq belgisi ishlatiladi?
- Undov belgisi qay holatda qo'yiladi?
- Qaysi vaqtda bu belgilar tushirib qoldiriladi?

Savollarga berilgan javoblar o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

2. O'z diktanti yoki yozuvda o'rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan (ko'rib idrok qiladilar) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar, keyin o'zlari

mustaqil yozadilar. Bunda matnni avval doskaga yozib berish ham mumkin. O'quvchilarga o'rganishlari uchun ma'lum vaqt ajratilgandan so'ng diktant matni berkitiladi. Yana bir usuli bir kun oldin o'quvchilarga o'zbek tili darsligidagi ma'lum bir matnni o'rganib kelish topshiriladi. Ular yodlaganlari asosida yozib bo'lganlaridan so'ng matn ochiladi. O'quvchilar yozganlarini doskadagiga yoki kitobiga taqqoslab tekshiradilar va xatosini tuzatadilar. Diktant o'tkazish usulidan ko'rinib turibdiki, matn aytib yozdirilmaydi, balki o'quvchilar matnni yodlaydilar va mustaqil yozadilar. Shuning uchun ham u o'z diktanti yoki yoddan yozish diktanti deyiladi.

O'z diktanti imloga oid ma'lumotlarni singdirish, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish, xotiralarini mustahkamlashga yordam beradi.

3. Izohli diktant o'quvchilar qobiliyatiga qarab ikki xil shaklda o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozilishidan oldin yoki keyin izohlaydi. So'zning yozilishini bo'g'in-tovush, tovush-harf tomonidan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, "Kitob-bilim manbayi"- "Kitob: ki-tob. Ikki bo'g'in. Birinchi bo'g'inida k, i; ikkinchi bo'g'inida t, o, b tovushlari bor. Oxirgi b tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda b yoki p tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun so'z oxiriga I tovushini qo'shamiz va aytamiz: kitob. B tovushi yozilar ekan" kabi izohlanadi. Bu diktantda o'quvchilar grammatik qoidalarga oid so'zlarning tagiga chizadilar.

4. Saylanma diktantda o'quvchilar topshiriq shartiga ko'ra matndagi so'z so'z shakllari, so'z birikmalari yoki gaplarni ajratib olib yozib boradilar. Diktantning bu turi fonetika, so'z yasalishi, imlo va grammatikaga oid qoidalar o'rgatilgandan so'ng mavzularni mustahkamlash yoki o'quvchilar bilimini sinab ko'rish maqsadida o'tkaziladi. Salanma diktantda o'quvchilar qaysi mavzuga oid so'zlar (so'z shakllari, so'z birikmalari yoki gaplar)ni ajratib olib yozishlari kerakligi batafsil tushuntiriladi, so'ng matn o'qib beriladi, o'quvchilar matn tarkibidagi kerakli so'zlar, so'z birikmalarini ajratib olib yozadilar. Diktantdan keyin o'quvchilar yozganlarni navbat bilan o'qiydilar va sinfda umumiy muhokama qilinadi. Buning natijasida o'quvchilarda lingvistik kompetensiya elementlarining shakllanganligi aniqlanadi. Masalan sifat so'z turkumi o'tib bo'lingach, o'qituvchi mavzuga taalluqli gaplar berilgan mashqni to'liq o'qiydi, o'quvchilar esa shu mashqdan faqat sifat turkumiga oid so'zlarni daftariga yozadilar.

5. Erkin diktantda o'quvchilarga mazmuni buzmay, gap tuzilishini o'zgartirish, bi so'zni unga yaqin ma'noli so'z bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3-5 qismli matn tanlanadi. O'qituvchi avval matnni bir marta ifodali o'qib beradi, so'ng matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Ayrim qoidalar eslatiladi. Keyin matinning bir qismi qayta o'qib beriladi, so'ng matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Ayrim qoidalar eslatiladi. Keyin matnning bir qismi

qayta o'qib beriladi, o'quvchilar uning mazmunini yozadilar. Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi barobarida o'quvchilar nutqini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

6. **Rasmi diktant** predmet rasmi yoki uning o'zini ko'rsatib o'tkaziladi: predmet rasmi ko'rsatiladi, o'quvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qo'yadilar, ish shunday davom etadi. Bunda birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko'ra yozilishi eslatiladi. Rasmi diktantda o'rganilgan grammatik qoida, ayniqsa, o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko'zda tutiladi.

7. **Lug'at diktant** ko'p vaqt olmasligi, ixchamligi bilan diktantning boshqa turlaridan farq qiladi. Shuning uchun gar bir mavzu o'tib bo'lingach, yangi mavzuni mustahkamlash uchun bunday diktant turidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Deyarli har bir mavzu (bo'lim) o'tib bo'lingach, lug'at diktant olish mumkin. Lug'at diktant uchun darsning 7-10 daqiqasini ajratish kifoya. Lug'at diktant o'quvchilarga so'zlarning qanday yozilishi so'zning ma'nosini o'rgatadi.

8. **Ijodiy diktant** o'quvchilar nutqini o'stirish, imloviy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, o'quvchini diktant matni asosida ijodiy fikr yuritish talab etiladigan nutq mahsulini yaratishga undaydi, mustaqil ishlash ko'nikmasini o'stiradi, uning faolligini oshiradi. Ijodiy diktantning bir ko'rinishi berilgan so'zlar asosida gaplar tuzish yoki matn yaratishdir.

Ijodiy diktant turlaridan foydalangan holda yozma savodxonlikni oshirish borasida yaxshi natijalarga erishish mumkin. Masalan, o'quvchilarga o'rgatilgan orfogrammalar tavsiya qilinadi va ulardan shu orfogrammalar ishtirok etgan gap tuzish talab etiladi. O'quvchilar tavsiya etilgan orfogrammalar yordamida tuzgan gaplarni o'qib beradi, orfogrammalarining tagiga va orfogrammaning nima uchun shunday yozilayotganligini tushuntiradi

Xulosa qilib aytganda diktant o'quvchilarning lug'atini bo'yitish, bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan orfografik mashq turlaridan biri hisoblanadi. Diktant orfografik mavzularni o'rganishning yakunlovchi bosqichida, o'quvchilar qoidalarini bilib olib, uni tatbiq qilishga o'rganganlaridan so'ng o'tkaziladi. Diktant yozganda o'rganilgan imlo qoidalarini to'g'ri tatbiq etish ularning ongli o'zlashtirilganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Ziyodullayeva, M.Mamadiyeva, Sh.Toshmirzayeva. Ona tilidadan nazorat ishlari va uni baholash mezonlari. Diktantlar to'plami. 5-11-sinflar uchun.- Toshkent: Yangi nashr, 2018 y.
2. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili metodikasi-Toshkent Noshri,

3. 2009 y. 1. Matchonov S., Bakiyeva H., Gulyamova X. va b. Boshlang'ichsinflarda onatilio`qitish metodikasi. –T.: Ishonchli hamkor. 2021. Gulyamova, X. (2021).
4. З.А Нарымбетова . ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ. Экономика и социум 3 (82), 2021
5. G'ulomova, X., & Bakiyeva, H. (2020). O'QISH DARSLARIDA SHE'RIY ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 582-589.